

O‘QITUVCHILARNING PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARINI ANIQLASH MEZONLARI VA KO‘RSATKICHLARI

Baxromova Muxlisa Rabbimqul qizi,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pedagogika mutaxassisligi 1-kurs magistranti
+998875019502

E-mail: muxlisabaxromova2703@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini aniqlashning nazariy-metodologik asoslari, asosiy mezonlari va baholash ko‘rsatkichlari keng yoritilgan. Shuningdek, pedagogik kompetensiyani rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar hamda uni baholashning zamonaviy usullari tahlil qilingan.

***Kalit so‘zlar:** pedagogik kompetensiya, kasbiy rivojlanish, metodik mahorat, baholash mezonlari, refleksiya, innovatsiya, AKT.*

CRITERIA AND INDICATORS FOR DETERMINING TEACHERS' PEDAGOGICAL COMPETENCIES

Bakhromova Mukhlisa Rabbimkul kizi,

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
1st year student of the master's degree in pedagogy
Phone number: +998875019502

E-mail: muxlisabaxromova2703@gmail.com

ABSTRACT

This article provides a comprehensive overview of the theoretical and methodological foundations, main criteria and assessment indicators for determining teachers' pedagogical competencies. It also analyzes the factors influencing the development of pedagogical competence and modern methods of its assessment.

***Keywords:** pedagogical competence, professional development, methodological skills, assessment criteria, reflection, innovation, ICT.*

KIRISH

XXI asr jamiyati bilimlar iqtisodiyoti va innovatsion rivojlanish davri sifatida ta’lim tizimiga, xususan, o‘qituvchi kadrlar tayyorlash jarayoniga yangicha talablar qo‘ymoqda. An’anaviy pedagogic yondashuvlar o‘rnini egallayotgan kompetensiyaga asoslangan ta’lim falsafasi, o‘qituvchidan nafaqat chuqur nazariy bilim, balki ularni

amalda qo‘llay olish, o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga, ijodkorlikka va doimiy mustaqil o‘rganishga unday oladigan murakkab ko‘nikmalar majmuasini talab qilmoqda. O‘zbekistonda ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, uzluksiz ta‘lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan harakatlar ushbu masalani yanada dolzarb qiladi. Ta‘lim sifatini ta‘minlashda bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, ularning kasbiy tayyorgarligi jarayonida bu kompetensiyalarni samarali shakllantirish va xolis baholash mexanizmlarini ishlab chiqish ustuvor vazifa sanalanadi. Bugungi globallashuv jarayonida ta‘lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy maktab o‘qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal etishga va hayotga tayyorlashga xizmat qiluvchi shaxsdir.

Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini aniqlash, baholash va rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Pedagogik kompetensiya o‘qituvchining professional faoliyatini samarali tashkil etish imkonini beruvchi kompleks sifat sifatida qaraladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Pedagogik kompetensiya tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ta‘lim nazariyasi va amaliyotida markaziy o‘rin egallay boshladi. Dastlabki yondashuvlar ko‘proq ma‘lumotlar va elementar ko‘nikmalar majmuasi sifatida talqin qilingan bo‘lsa, keyinchalik bu tushuncha o‘qituvchining kasbiy faoliyatida duch keladigan turli vaziyatlarda samarali harakat qilish, muammolarni hal etish va doimiy ravishda o‘z ustida ishlash qobiliyati sifatida kengaytirildi. Kompetensiyaga asoslangan ta‘lim(KAT) g‘oyasi pedagogikada faol o‘qitish va baholash yondashuvlarini shakllantirishga turtki bo‘ldi.

Pedagogik kompetensiya — bu o‘qituvchining kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarining uyg‘unlashgan tizimidir.

Ilmiy adabiyotlarda pedagogik kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarga ajratiladi:

- Kognitiv komponent – nazariy bilimlar majmui
- Faoliyat komponenti – amaliy ko‘nikma va malakalar
- Shaxsiy komponent – pedagogning individual xususiyatlari
- Motivatsion komponent – kasbga bo‘lgan qiziqish va intilish
- Refleksiv komponent – o‘z faoliyatini tahlil qilish qobiliyati

Mazkur komponentlar o‘zaro bog‘liq holda pedagogik faoliyat samaradorligini ta‘minlaydi.

Pedagogik kompetensiya quyidagi asosiy turlarga ajratiladi:

1. Kasbiy (predmetga oid) kompetensiya - fan bo'yicha chuqur bilim va dars mazmunini to'g'ri tushuntirish, o'quv materialini tizimli bayon qilish sanaladi.
2. Metodik kompetensiya - darsni loyihalash va rejalashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash va interaktiv metodlardan foydalanish kiradi.
3. Kommunikativ kompetensiya - o'quvchilar bilan samarali muloqot, nutq madaniyati hamda ijobiy psixologik muhit yaratish muhim sanaladi.
4. Axborot-kommunikatsion (AKT) kompetensiya - raqamli vositalardan foydalanish, onlayn platformalarda ishlash va multimediali darslarni tashkil etish hisoblanadi.
5. Refleksiv kompetensiya - o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolar ustida ishlash va o'zini rivojlantirish strategiyalarini belgilash muhim omillaridir.

Pedagogik kompetensiyalarni aniqlash mezonlari deganda o'qituvchining kasbiy darajasini aniqlash hisoblanadi va bu uchun quyidagi mezonlar muhim sanalanadi:

- Kasbiy bilim mezoni - fan bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish, yangiliklardan xabardorlik va pedagogika va psixologiya asoslarini bilish
- Metodik faoliyat mezoni - darsni aniq maqsad asosida tashkil etish, turli metodlardan foydalanish va differensial yondashuvni qo'llash
- Kommunikativ faoliyat mezoni - o'quvchilar bilan samarali muloqot, konfliktlarni boshqarish hamda jamoada ishlash qobiliyati
- Innovatsion faoliyat mezoni - yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, kreativ yondashuv va Gamifikatsiya va AKTdan foydalanish
- Refleksiv faoliyat mezoni - o'z ishini baholash, tahlil qilish hamda doimiy o'z ustida ishlash

Pedagogik kompetensiyalar ko'rsatkichlarida har bir mezon aniq indikatorlar orqali baholanadi:

❖ Mezon Ko'rsatkichlar - Kasbiy bilim Fan bo'yicha savodxonlik, ilmiylik, tushuntirish aniqligi bo'lsa, metodik mahorat esa darsning samaradorligi, metodlar xilma-xilligi va kommunikativlik, muloqot sifati, o'quvchilar faolligida ko'rinadi. Innovatsiya AKTdan foydalanish, yangi metodlar qo'llash va refleksiya esa o'z faoliyatini tahlil qilish darajasi hisoblanadi.

Pedagogik kompetensiyalarni baholash usullari deganda zamonaviy ta'lim tizimida turli usullardan tizimli qo'llay olishga aytiladi va bunda quyidagi baholash usullari keng qo'llaniladi:

- Kuzatuv metodi - dars jarayonini tahlil qilish orqali o'qituvchining faoliyati baholanadi.
- Test va so'rovnomalar - nazariy bilim va kasbiy tayyorgarlik aniqlanadi.

- Portfolio tahlili - o'qituvchining ish faoliyati hujjatlari o'rganiladi.
- O'z-o'zini baholash - pedagog o'z faoliyatini mustaqil baholaydi.
- O'quvchilar natijalari - ta'lim samaradorligi orqali baholash amalga

oshiriladi.

Pedagogik kompetensiyani rivojlantirish quyidagi yo'llar orqali amalga oshiriladi:

- Malaka oshirish kurslari
- Seminar va treninglar
- Mustaqil ta'lim
- Ilmiy-tadqiqot faoliyati va innovatsion loyihalarda ishtirok

Zamonaviy yondashuvlar: Hozirgi kunda pedagogik kompetensiyani rivojlantirishda quyidagi yondashuvlar muhim:

1. Kompetensiyaviy yondashuv
2. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim
3. STEAM ta'limi
4. Raqamli pedagogika
5. Gamifikatsiya texnologiyalari

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini aniqlash va baholash zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Pedagogik kompetensiya o'qituvchining nafaqat bilim darajasi, balki uning metodik mahorati, kommunikativ qobiliyati, innovatsion yondashuvi va refleksiv faoliyatini ham o'z ichiga olgan murakkab tizimdir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aniq ishlab chiqilgan mezon va ko'rsatkichlar asosida o'qituvchilar faoliyatini baholash ularning kasbiy rivojlanishini tizimli ravishda yo'lga qo'yishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatining oshishiga, o'quvchilarning bilim darajasi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni uzluksiz bo'lishi lozim. O'qituvchi doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishi va amaliyotga joriy etishi zarur. Ayniqsa, raqamli ta'lim muhiti, innovatsion metodlar va kompetensiyaviy yondashuvlar bugungi kunda o'qituvchi faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Kelgusida pedagogik kompetensiyalarni baholash tizimini yanada takomillashtirish, individual rivojlanish trajektoriyalarini ishlab chiqish hamda xalqaro tajribalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda,

o'qituvchilarning kasbiy salohiyati oshib boradi va bu ta'lim tizimining umumiy samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avliyakov N.X., Musayeva N.A. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
2. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
3. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008.
4. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. – Moskva: Logos, 2004.
5. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17773658>